

NOK DARAXTI ZARARKUNANDALARI

**Normamatova Shohsanam Jahongir qizi
Urozaliyeva Diyora Nurali qizi
Xamrayeva Navro'za Zokir qizi
Xursanova Sojida Sarvar qizi**

Annotatsiya: *Olma qurtiga qarshi kurashish uchun avvalo, yerga to'kilgan mevalar yig'ilib, chuqurga ko'milishi kerak. Iyun oyining boshida daraxtlarining qalin shoxlari va tanalarini kartondan yasalgan tuzoqlarga maxsus lentalar o'rab ularga qarshi kurashish kerak. Yangi barpo etilayotgan bog'larda chidamli navlardan ekish kerak. Zarar to'g'ridan-to'g'ri mevaga yetkazilganligi sababli, kimyoviy kurash ishlari amalga oshiriladi. Kimyoviy preparatlarni qo'llashda esa, dorilash vaqtining aniq qilinishi juda muhimdir.*

Kalit so'zlar: meva, nok, zararkunanda, qarshi kurash, rivojlanish, lichinka

Абстрактный: Для борьбы с яблонной червью в первую очередь следует собрать упавшие на землю плоды и закопать их в яму. В начале июня с ними необходимо бороться, обматывая специальными лентами толстые ветки и стволы деревьев в картонных ловушках. Вновь засаженные сады следует засаживать устойчивыми сортами. Поскольку вред наносится непосредственно плодам, проводятся химические работы по борьбе. При использовании химических препаратов очень важно определить время приема лекарства.

Ключевые слова: плоды, груша, вредитель, борьба, развитие, личинка.

Abstract: *To combat the apple worm, first of all, the fruits that have fallen on the ground should be collected and buried in a pit. At the beginning of June, it is necessary to fight against them by wrapping the thick branches and trunks of trees in cardboard traps with special tapes. Newly established gardens should be planted with resistant varieties. Since the damage is caused directly to the fruit, chemical control works are carried out. When using chemical drugs, it is very important to determine the time of medication.*

Key words: fruit, pear, pest, control, development, larva

KIRISH

Olma qurti (*Cydia pomonella* L.). Voyaga yetgan kapalak kulrang, uzunligi o'rtacha 10 mm bo'ladi. Kapalaklarning ikkala qanot uchlarida uchburchak to'q jigarrangli dog' ularni ajratib turadi. Lichinkalar chiqqanida 1 mm uzunlikda, rivojlanishini tugatgan lichinkalar 15-20 mm uzunlikda va oq-pushti rangda bo'ladi. Olma qurti qishni daraxt tanasidagi yorilgan qobiqlar orasida lichinka holida o'tkazadi. Voyaga yetgan lichinkalar bahorning aprelb oyiga oxirida chiqsa boshlab, may oyining boshlari ko'rina boshlaydi. Bu jarayon taxminan bir oy davom etadi.

Voyaga yetganlari urug' qo'yishi uchun kechki paytdagi harorat ketma-ket ikki kun davomida 15 °C dan yuqori bo'lishi kerak. Ular barglar va chalar 4-8 soat ichida

mevaga kirib, meva bilan oziqlanadi. Lichinkalik davri 30-40 kun davom etadi va zararkunanda yiliga 2-3 marta nasl qoldiradi. To'g'ridan-to'g'ri mevaga zarar yetkazadi. Mevaga kirgan lichinkalar yong'oq mag'zini yeb, erta to'kilishiga va hosilning pasayishiga olib keladi.

Qarshi kurash choralari. Olma qurtiga qarshi kurashish uchun avvalo, yerga to'kilgan mevalar yig'ilib, chuqurga ko'milishi kerak. Iyun oyining boshida daraxtlarining qalin shoxlari va tanalarini kartondan yasalgan tuzoqlarga maxsus lentalar o'rab ularga qarshi kurashish kerak. Yangi barpo etilayotgan bog'larda chidamli navlardan ekish kerak. Zarar to'g'ridan-to'g'ri mevaga yetkazilganligi sababli, kimyoviy kurash ishlari amalga oshiriladi. Kimyoviy preparatlarni qo'llashda esa, dorilash vaqtining aniq qilinishi juda muhimdir. Urug'dan chiqqan lichinkachalar mevaga kirishidan oldin daraxtlarga sepilishi kerak.

Qarshi kurash vaqtini belgilashda zararkunandalarning chiqishi kuzatiladi va juftini o'ziga chorlovchi feramon tuzoqlardan foydalaniladi. Taxmin qilish usuli deb nomlanuvchi bu usulda daraxning fenologiyasidan foydalanib, mevasining kattaligi (diametri) 1,0-1,5 sm bo'lganda qarshi kurashish boshlanishi kerak. Shu bilan birga preparatning ta'sir etish muddati aniq qilinib, keyingi dorilash ishlarini ham davom ettirish lozim. O'suv davrida tarkibida xlorantraniprol, atsetamiprid, lyambda-tsigolotrin, tiokloprid yoki sipermetrin+xlorpi-rifos bo'lgan preparatlar bilan ishlov beriladi.

Bargning shira bitlari (*Choromaphis juglandicola*, *Callaphis juglandis*). Voyaga yetganlarining rangi sariq, uzunligi 1,5-2,0 mm bo'ladi. Mevali daraxtlar uchun zararli bo'lgan har ikkala zararkunandaning hayot sikli bir-biriga o'xshash bo'lib, rivojlanish davrida qanotli va qanotsiz voyaga yetgan zararkundalarga duch kelish mumkin. Ular qishni g'umbak holida o'tkazishadi va bahorda urug'lardan chiqqan barcha zararkunandalar urg'ochilardan iborat bo'ladi.

Kundalik quyosh nuri tushish vaqtি, issiqlik, oziqlanish kabi, omillar ta'sirida kuzda urug' qo'yadigan nasl vujudga kelib urug' qo'yishadi. Tashqi muhitga qarab, bir yilda bir necha marta nasl berishadi. Barglardagi o'simlik suvidan oziqlanishadi. Natijada, daraxtining rivojlanishi sekinlashadi. Bu mevaning sifati va hosildorligiga salbiy ta'sir qiladi. Barg bitlarining ko'payishi, meva hajmining kichrayishiga, yozda esa meva mag'zining burishib qolishiga olib keladi. Shu bilan birga, o'zidan chiqaradigan shirin modda ta'sirida chirish paydo qilib, qora dog'larni keltirib chiqaradi.

Qarshi kurash choralari. Barg bitining ko'plab tabiiy dushmanlari mavjud. Ular odatda zararkunandalarga ta'sir ko'rsata oladilar. Zararkunandalarga qarshi dori orqali kurashish rejalshtirilganda foydali turlarning zichligini hisobga olish kerak. Turli ta'sir etuvchi yoki sistemik pestitsidlardan bitlarga qarshi kurishishda foydalanish mumkin. Dimetoat (0,03%) yoki Monokrotofos (0,05%) yoki Malation (0,1%) kabi preparatlari 15 kunlik oraliq bilan sepilishi bit ko'payishini oldi olinadi. Bitning turli turlari qarshi tarkibi zamburug' bo'lgan biologik insektitsidlarni qo'llash orqali ham kurashish mumkin.

Qizil o'rgimchak kana (*Panonychus ulmi*). Qizil o'rgimchakkananing voyaga yetgan urg'ochilar to'q qizil rangli, uzunligi 0,8 mm, urug'lari qizg'ish, piyoz shaklida, ustida qobig'i bo'ladi. Qishni urug' holida, daraxt shoxlari va novdachalarida o'tkazadi. Bahorda urug'dan chiqqan lichinkalar yangi novdalarga o'tib, barglarning suvini so'rib oziqlana boshlaydi. Voyaga yetganidan so'ng, urug'larini barglarning ostki qismiga qo'yishadi. Oziqlanish joyida to'r hosil qilmaydi. Bir yilda 8-9 martagacha nasl qoldiradi.

Qarshi kurash chorralari. Qishda 25 tadan 100 tagacha o'suvchi yoki mevali kurtaklar ostini tekshiring. Agar 10% dan ortiq kurtaklarda qizil kana tuxumlarini topsangiz gullashdan avval mineral moylar bilan ishlov beriladi. Agar 10% dan kam bo'lsa, mineral moy bilan ishlov bermasa ham bo'ladi. Bog'larda chang ko'tarilishini kamaytirish va daraxtlarni doimiy suv bilan ta'minlab turish kanalarni tez ko'payishining oldini oladi. Kurtaklar bo'rtish vaqtida mineral moylar bilan tarkibida xlorpirimfos, abamectin yoki diazinon bo'lgan preparatlarni aralashtirib ishlov beriladi. Vegetatsiya davrida esa har bir bargda 10 tadan 30 tagacha tirik qizil kana topilsa tarkibida abamektin, gesitiazoks, spirotetramat, amitrats, bifentrin va propargit bo'lgan preparatlar bilan ishlov beriladi.

O'rgimchakkana (*Tetranychus urticae*). Voyaga yetgan o'rgimchakkananing rangi yashil yoki jigarrang yashil bo'ladi. Urug'lari och sariq, yaltiroq va yumaloq. Urg'ochilar qishni daraxt qobig'i ostida, yerga to'kilgan barg qoldiqlari orasida o'tkazadi. Bahor faslining mart oyidan qishlagan joyidan chiqadi. Barglarning ostki yuzasidan o'simlik oziqasini so'rib, oziqlanadi va daraxtning zaiflashishiga olib keladi. Oziqlanadigan joyida zikh qilib to'r to'qiydi. Iqlim sharoitiga qarab, yiliga 10-15 marta nasl berishi mumkin.

Qarshi kurash chorralari. Nokning zararkunandalari va kasalliklariga daraxtni zararlanganlik darajasidan kelib chiqqan holda quyidagi tadbirlar qo'llaniladi. Qish davrida barcha hasharotlarga qarshi (qalqondor, kana, kuya) daraxtlarga «Preparat-30» moyi bilan ishlov beriladi. Bahorda lichinkalarga qarshi insektitsidlar bilan yaxshilab ishlov beriladi. Yoz davrida esa kanalar muammo bo'lganda akaratsidlardan foydalanish mumkin. Agar faqat o'rgimchak yoki qizil kana bilan shikastlangan bo'lsa, unda oltingugurtni 1:1 nisbat qilib, tuproq (kul) aralashmasi bilan 2 marotaba ishlov berish yaxshi natija beradi. Har xil kasalliklarga qarshi gullashdan oldin va keyin 1% li bardo suyuqligi bilan ishlov beriladi. Daraxt tanasi 10% ohak eritmasiga 3% li temir kuporosi qo'shib oqlanadi.

Qon biti - (*Eriosoma lanigerum* Hausm). Qanotsizi to'q qizil bo'lib, usti mumsimon parli oq g'ubor bilan qoplangan. Qon bit tanasi tuxum shaklida, qanotsiz bit voyaga yetganda uzunligi 2,1-2,6 mm. Qanotli bitning oq pari faqat qornining uchida bo'ladi. Gavdasi silindr shaklida bo'lib, uzunligi 2,2 mm. Tuxumi cho'zinchoq, bo'yi 0,5 mm, yupqa oq changi bor, dastlab zarg'aldoq rangda, 3-6 kundan keyin esa jigarrang tusga kiradi. Qon biti har xil yoshdagi lichinka va voyaga yetgan hasharotlik holatida daraxtlarining ildizlarida, po'stloq yoriqlarida va yo'g'on shoxlarining asosida

qishlaydi. Fevralni oxiri mart boshlarida bitlar uyg'onib, dastlab qishlagan joylarida oziqlana boshlaydi, so'ogra daraxtlarga o'rmalab chiqib, po'stlog'i nozik yoki zararlangan joylariga o'rashib oladi. Bitlarning galalari sidirg'a mum par bilan qoplanadi. Qon biti yoz bo'yи 15-17 ta bo'g'in beradi. Aprel oxiri may boshlarida lichinkalarning bir qismida qanot boshlang'ichlari paydo bo'ladi va ulardan qanotli bitlar yetishadi. Dastlab qanotli bitlar juda kam bo'lib, avgust oxiri sentyabrda ko'plab paydo bo'ladi. Yangi bog'larga ko'chat bilan tarqaladi. Zarari. Nok va boshqa mevali daraxtlarning ildizini, tana va shoxlarining shirasini so'rib, daraxtlarni kuchsizlantiradi. Bitning shira so'rgan joylarida g'uddalar paydo bo'ladi, ular keyinchalik yorilib, chiriydi. Qon biti tushgan yosh daraxtlar ko'pincha qurib qoladi, qari daraxtlar esa kuchsizlanib, hosili juda kamayib ketadi. Qon biti ko'p tushgan shoxlar quriydi.

XULOSA

Voyaga yetgan qandala uzunligi 3-3,5 mm; qora-qo'ng'ir, oldingi qanotlari serbar, oynadek tiniq, noto'g'ri shakldagi qoramtil dog'lari va tomir turlari bor, shu sababli qanotlari to'r ko'rinishini oladi, orqadagi qanotlari kambar. Urg'ochisining qorin uchi yumaloqlangan. Tuxumi 0,4 mm, kulrang-qora, cho'ziq. Lichinkasi 0,6-2,3 mm, yassi uzunchoq, och-qo'ng'ir, uchinchi yoshdan boshlab qanot boshlang'ichlari paydo bo'ladi. Yetuk zoti xazon osti, po'stloq yoriqlari va boshqa himoyalangan joylarda qishlaydi. Aprel boshlarida o'yg'onib daraxtlarga ko'chadi. Urg'ochisi nok gullah davrining oxirida barg orqasiga, etining ichiga 7-8 tadan qilib, jami 400 tagacha tuxum qo'yadi. Tuxumdan 20-30 kunda lichinka chiqib, 25-30 kunda voyaga yetadi. Voyaga yetgan qandala va lichinkalar bargning ostki tomonidan shirasini so'rib zararlaydi. Kuchli zararlangan barglar rangsizlanadi va bargning ostki tomoni qandala tezagi bilan bo'yalib qopa dog' bo'lib qoladi. Iyunda birinchi bo'g'inning voyaga yetganlari paydo bo'ladi, ular darhol urchiydi va tuxum qo'ya boshlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Oliy majlis qonunlar tuplami.1,2 qism 1998.
2. A.A.Ro'bakov,S.A.Ostroukhova - «O'zbekiston mevachiligi» T.: «O'qituvchi», 1981.
3. A.A.Ro'bakov, S.A.Ostroukhova - «Plodovodstvo O'zbekistana». T.: «O'qituvchi»,1972.
4. V.A.Kolesnikov - «Plodovodstvo» M.: «Kolos» 1985.
5. V.A.Kolesnikov - «Praktikum po plodovodstvu» M.: « Kolos» 1971.
6. A.G.Martinenko - «Praktikum po plodovodstvu» T.: «Matbuot», 1982.
7. M.M.Mirzaev, M.K.Sobirov - «Bog'dorchilik» T.: «Mehnat» 1987.
8. V.M.Kurennoy, V.F.Koltunov - «Plodovodstvo» M.: «Agropromizdat» 1985.
9. O.K.Afanasev - «Intensivnoe sadovodstvo» T.: «O'qituvchi» 1975.